



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

TARIXIY MANBALARDA ILMIY VA IRFONIIY ATAMALAR TIZIMI

Sidikova Ma'mura Adhamjonovna

Oriental universiteti "Tillar-1" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilmiy va irfoniiy atamalarning shakllanishi, semantik xususiyatlari hamda tarixiy-lingvistik taraqqiyoti masalalari yoritiladi. Atamalarning fan, hunar va ijtimoiy-madaniy sohalaridagi o'rni, ularning ilmiy tafakkur va til madaniyati rivojidadagi ahamiyati atamashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida uchraydigan ilmiy, diniy va irfoniiy atamalar misolida terminlarning badiiy-estetik va ma'naviy mazmunni ifodalashdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ilmiy atamalar, irfoniiy atamalar, atamashunoslik, terminologiya, semantik tahlil, tarixiy manbalar, Movarounnahr allomalari, mumtoz adabiyot, tasavvuf, diniy terminlar

СИСТЕМА НАУЧНЫХ И ИРФАНИЙСКИХ (МИСТИКО-ФИЛОСОФСКИХ) ТЕРМИНОВ В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Сидикова Маъмура Адхамжонова

преподаватель кафедры «Языки-1» Университета Oriental

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы формирования, семантических особенностей и историко-лингвистического развития научных и ирфанийских (мистико-философских) терминов. С позиций терминоведения анализируется роль терминов в сферах науки, ремесла и социокультурной жизни, а также их значение в развитии научного мышления и языковой культуры. На примере научных, религиозных и ирфанийских терминов, встречающихся в произведениях Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура, раскрывается роль терминов в выражении художественно-эстетического и духовного содержания.

Ключевые слова: научные термины, ирфанийские термины, терминоведение, терминология, семантический анализ, исторические источники, ученые Мовароуннахра, классическая литература, суфизм, религиозная терминология..

THE SYSTEM OF SCIENTIFIC AND IRFANI (MYSTICAL) TERMINOLOGY IN HISTORICAL SOURCES

Sidikova Ma'mura Adhamjonovna

Lecturer of the "Languages-1" Department, Oriental University

Abstract

This article discusses the formation, semantic features and historical-linguistic development of scientific and philosophical terms. The role of terms in science, craft and socio-cultural spheres, their significance in the development of scientific thought and language culture are analyzed from the point of view of terminology. The role of terms in expressing artistic, aesthetic and spiritual content is revealed on the example of scientific, religious and philosophical terms found in the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur.

Keywords: scientific terms, irfanī (mystical) terms, terminology studies, terminology,

semantic analysis, historical sources, scholars of Mawarannahr, classical literature, Sufism, religious terminology

Atama ma'lum fan yoki hunar sohasiga oid tushunchalarni qayd qilish, saqlash va bu sohada to'plangan bilim, tajriba, texnik mahorat va malakani boshqalarga berish vositasidir. Atama ifoda etilayotgan tushunchani o'zida to'la mujassamlashtirishi kerak. Atamalarning aniqligi va qat'iylashishi mazkur millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini belgilaydi. Atamalar adabiy tilining bir tarmog'i bo'lib, uning ichki qonuniyatlariga bo'ysunadi. Asossiz tanlangan atama davr o'tishi bilan ifodalagan tushuncha mazmuniga mos kelmasa, iste'moldan chiqadi, uning o'rniga yangi atama yaratiladi yoxud uning ma'qul sinonimi o'rnini egallaydi.

Atama va atamashunoslik hozirgi kunning eng muhim va dolzarb muammolaridan bo'lib qoldi. Har bir tur o'z nomini talab qiladi. Shu boisdan ham atamalarni aniqlash, tanlash, yangisini topish, ularni umumlashtirish va standart bir shakliga keltirish, atama bilan so'zni bir-biridan farqlash muhim ahamiyatga ega.

1984 yilda O'zRFA Rayosati qoshida Respublika muassasalararo atamashunoslik qo'mitasining tashkil etilishi o'zbek terminologiyasi taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Mazkur qo'mita bugungi kunda ham atamashunoslik sohasida izchil va qizg'in faoliyat olib bormoqda. Fanning turli yo'nalishlariga oid 150 dan ortiq atama lug'atlarining nashr etilgani bu yo'nalishda amaliy ishlarning sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, hozirgi terminologik ishlar nazariy jihatdan yetarlicha mustahkam asosga ega emas. Nashr etilgan lug'atlar, ilmiy tadqiqotlar va matbuot materiallarida birlik va izchillikning to'liq ta'minlanmaganligi — atama lug'atlarini tuzishning yagona tartib-qoidalari ishlab chiqilmagani bilan izohlanadi.

Aslida esa, turkiy xalqlar til madaniyati va termin yaratish tajribasi juda qadimiy ildizlarga ega. Buni biz turkiy yozma-adabiy tilning ilk namunalari — O'rxun-Yenisey davri run bitiklari misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu bitiklar turkiy ajdodlarimizning yuqori darajada rivojlangan lisoniy tafakkurini, fonetik-fonologik tizimni, morfem-morfologik qurilmani, boy leksik-semantik qatlamni va sintaktik tuzilmani aniq aks ettirgan manbalardir. Qadimgi turkiy tilning shakllangan tuzilmasi va undagi atamalar tizimi o'sha davr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va madaniy hayotini yoritib beradi. Runik obidalar janr nuqtai nazaridan olti guruhga taqsimlanadi:

- tarixiy–biografik bitiklar
- epitafik bitiklar
- ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi
- harbiy terminlar
- savdo-sotiq, moliya bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi istilohlar
- soliq va boj terminlari tizimi
- zoonimlar
- astroponimlar
- anatomik terminlar
- tibbiy terminlar
- ma'dan nomlarlarini anglatuvchi terminlar
- dunyo (kurra)ning to'rt tomoni va vaqt (sutka) o'lchov birligini ifodalovchi terminlar tizimi
- ilm-fanga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar
- diniy tushunchalar nomlari (teonimlar):
- ekologik terminlar

O'rta Osiyoning arablar tomonidan fath qilinishi oqibatida islom dini, arab tili va madaniyati, arab xati shu mintaqada azaldan istiqomat qiluvchi xalqlar, millatlar, qabilalar, qavmlar, urug'lar intellektual hayotidan mustahkam o'rin oldi. Islom dini tarqalgan mamlakatlarda hunarmandchilikning o'sishi, san'at, savdo aloqalari va fanning rivojlanishi bilan san'at, savdo, ximiya, matematika, astronomiya, geografiyaga oid atamalarining arab tilida ko'chishini ta'minlandi. Bular keyinroq hind—Yevropa tillariga ko'chdi. Masalan: tara, tarif, al'kogol, alizarin, azimut, nodir, musson .

Movarounnahr ulamolari tomonidan yaratilgan ilmiy, diniy, huquqiy, adabiy va falsafiy asarlarda turli sohalarga oid atamalar keng qo'llangan bo'lib, ular mazkur asarlarning ilmiy mazmunini anglashda muhim manba vazifasini bajaradi. Ushbu atamalarni o'rganish nafaqat muallifning ilmiy-ma'rifiy maqsadlarini, balki o'z zamonasining madaniy, ma'naviy va ilmiy muhitini tushunishga ham imkon yaratadi. Arab, fors va turkiy tillarda yozilgan Movarounnahr merosi — ayniqsa fiqh, mantiq, balog'at, tilshunoslik, tibbiyot, falsafa va tarixga oid matnlarni chuqur talqin qilish uchun ularda qo'llangan terminlarni turlarga ajratish, ularning asl mazmuni va semantik qatlamini aniqlash zarurdir.

Ilmiy atamalar o'z tabiati jihatidan turli fan sohalarida muayyan tushunchalarni aniq, chalkashliksiz ifodalash uchun xizmat qiladigan maxsus lingvistik birliklar hisoblanadi. Ular ilmiy fikrni bir ma'noda yetkazish, mazmuniy aniqlikni ta'minlash va ilmiy muloqotda yagona tushunchaviy tizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ilmiy terminlar odatda qat'iy belgilangan mantiqiy-ta'rifiy asosga ega bo'ladi, ularning mazmuni xalqaro va tarixiy ilmiy an'analarda barqaror ishlatiladi. Masalan: termin, kategoriya, metod, konsepsiya, analiz, sintez, funksiyalash, lingvistika, morfema, semema kabi atamalar turli fanlar uchun universal tushunchaviy asosni tashkil etadi .

Movarounnahr allomalari asarlarida uchraydigan ilmiy atamalarni tizimli o'rganish esa — ularning qaysi fanga tegishli ekanini aniqlash, semantik rivojlanishini qayd etish hamda turkiy, arabiy va forsiy ilmiy maktablar o'rtasidagi terminologik uyg'unlikni tadqiq etish — bugungi atamashunoslik ilmiga ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim hissa qo'shadi .

Irfoniy atamalar va timsollar sharq falsafasi hamda adabiyotining ajralmas qismi bo'lib, ular insonning ma'naviy kamoloti, ruhiy yuksalishi va hayot ma'nosi bilan bog'liq masalalarni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Irfoniy g'oyalarning asosiy manbalaridan biri tasavvuf falsafasi bo'lib, u sharq adabiyotida chuqur iz qoldirgan. Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida irfoniy qarashlar timsollar orqali ifodalangan. Ular inson qalbining poklanishi, ilohiy haqiqatni anglash, ma'naviy komillikka erishish yo'lini badiiy shaklda tasvirlaganlar. Irfoniy atamalar — tasavvuf ilmi va ruhiy-ma'naviy tajribaga asoslangan atamalardir. Ular insonning qalb holati, ruhiy kamolot bosqichlari, Allohni tanish (ma'rifat) jarayoni va tasavvufiy sulukda uchraydigan ichki kechinmalarni ifodalaydi. Irfoniy terminlar ko'proq tajribaga, ruhiy holatga va ma'naviy idrokka tayanadi, shu sababli ularning ma'nosi ko'p qatlamli bo'lishi mumkin.

Irfoniy g'oya va timsollar zamonaviy o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topishda davom etmoqda. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi kabi shoirlar ijodida traditsion sufiyona mazmun modern badiiy shakllar bilan uyg'unlashgan holda yangi talqinda namoyon bo'ladi. Bularning barchasi irfoniy tafakkurning turli davrlarda ham badiiy-estetik, ham falsafiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi .

Mumtoz adabiyotimizning ulkan siymosi Alisher Navoiy esa irfoniy qarashlarni diniy-tasavvufiy mazmundagi nasriy va nazmiy asarlarida yuksak mahorat bilan ifodalagan. Uning turkiy tildagi diniy-tasavvufiy merosi yaratilish usuliga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- 1) To'liq she'riy yo'lda bitilgan asarlar ("Siroj ul-muslimin", "Lison ut-tayr");
- 2) She'riy va nasriy usul uyg'unlashgan asarlar ("Nazm ul-javohir", "Arba'in",

“Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub” va boshqalar);

3) Nasriy tarzda yaratilgan asarlar (“Munojot”). Biroq u qaysi uslubda ijod qilmasin, barcha asarlarida irfoniy-tasavvufiy g‘oyalar markaziy o‘rin egallagan.

Navoiy ilmiy yo‘nalishda yozgan “Tarixi muluki ajam”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlarida ham she‘riy parchalar orqali irfoniy fikrlarni ilgari surgan. Ularning barchasida nazm namunalari mavzudan kelib chiqib, turli hajm va badiiy maqsadlarda qo‘llangan bo‘lib, shoirning ruhiy-ma‘rifiy qarashlarini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xuddi shunday, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham muallifning diniy-irfoniy dunyoqarashi o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Bobur voqealarni tasvirlar ekan, diniy terminlar va iboralarni tabiiy ravishda matnga singdiradi. Ayniqsa, ibodat va diniy marosimlarga oid atamalar uning ruhiy-ma‘naviy qarashlarini aks ettiruvchi muhim belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, asarda namozi bomdod, namozi peshin, namozi digar, namozi shom, namozi huftan kabi kundalik ibodat vaqtlariga doir istilohlar, shuningdek, ramazon iydi, iydi fitr, qurbon iydi, sunnat vaqti kabi diniy marosim va hukmlarga oid atamalar uchrashi Boburning dindorlik ruhidagi hayot kechirishini va diniy an‘analarga e‘tiborini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, Navoiy asarlaridagi irfoniy she‘riy parchalar qanday ruhiy-ma‘naviy mazmunni yoritishga xizmat qilgan bo‘lsa, “Boburnoma”dagi diniy terminlar ham Boburning ichki dunyosi, e‘tiqodi va tariqatga yaqin ma‘naviy qarashlaridan dalolat beradi.

Xulosa

Atamalar har qanday fan, hunar yoki ijtimoiy-madaniy sohaning ilmiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan lingvistik birliklardir. Ularning shakllanishi va takomillashuvi nafaqat ilmiy tafakkur taraqqiyotini, balki xalqning madaniy-ma‘rifiy darajasini ham aks ettiradi. O‘zbek tilida atamashunoslikning izchil rivojlanishi — qadimgi turkiy yozma manbalardan boshlab, Movarounnahr ulamolari merosi orqali davom etib, bugungi zamonaviy ilmiy maktablarga qadar uzluksiz jarayon sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, turkiy, arabiy va forsiy ilmiy maktablar o‘rtasidagi terminologik uyg‘unlik bu merosning boyligi va salohiyatini yana-da oshiradi.

Movarounnahr allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy, diniy, huquqiy va adabiy asarlar o‘z davrining ilmiy muhitini aks ettirib, turli sohalarga oid terminlarning shakllanishida muhim manba vazifasini o‘taydi. Irfoniy terminlar esa Sharq tafakkurining ruhiy-axloqiy qirralarini ochib berishga xizmat qilgan bo‘lib, tasavvuf falsafasi, ma‘naviy poklanish va ilohiy haqiqatni idrok etish singari mavzularni badiiy timsollar orqali ifoda etadi.

Alisher Navoiy ijodida ilmiy, badiiy va irfoniy qarashlarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan termin va ramzlar uning asarlariga chuqur ma‘naviy mazmun bag‘ishlaydi. Xuddi shunday, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si ham diniy-irfoniy terminlar orqali muallifning ruhiy olami, dunyoqarashi va diniy an‘analarga sadoqatini namoyon etadi.

Shu bois, tarixiy manbalarda uchraydigan ilmiy va irfoniy atamalarni tizimli o‘rganish — nafaqat tilshunoslik, balki adabiyot, tarix, falsafa va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham dolzarb vazifadir. Bu atamalarni tadqiq etish orqali biz o‘zbek ilmiy tafakkuri taraqqiyotining ildizlarini, mumtoz adabiyotning ichki mazmuniy qatlamlarini hamda ajdodlarimizning dunyoqarashini yanada chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. H.Dadaboyev. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

universiteti, 2019.

2. N.A.Jumayeva. Sharq allomalarining ilmiy merosi. – Buxoro: Durdona, 2022
3. Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi. Irfoniy g‘oya va timsollar: an’ana va o‘ziga XOSLIK. Qo‘qon universiteti xabarnomasi. -2024.
4. (<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/atama-va-atamashunoslik>)
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/termin-va-terminologiya-berilgan-ta-riflar/viewer>
6. file:///C:/Users/user/Downloads/CANRMS+1001.pdf
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/zahiriddin-muhammad-boburning-boburnoma-asarida-irfoniy-qarashlar/viewer>.